



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
kimyo fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 10-sinflar uchun
II chorak

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 10-sinf kimyo fanidan II chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Alkenlar. Nomenklaturasi. Izomeriyasi	1		
2.	Alkenlarning olinishi, xossalari va ishlatilishi	1		
3.	BSB-3 (20 ball) Amaliy mashg‘ulot. Etilenning olinishi va xossalarini o‘rganish	1		
4.	Alkadiyenlar. Gomologik qatori. Izomeriyasi. Nomlanishi	1		
5.	Alkadiyenlarning olinishi, xossalari va ishlatilishi	1		
6.	Kauchuk. Rezina	1		
7.	Alkinlar. Gomologik qatori. Izomeriyasi. Nomlanishi	1		
8.	Alkinlarning olinishi, xossalari, ishlatilishi	1		
9.	BSB-4 (30 ball)	1		
10.	Aromatik uglevodorodlar. Gomologik qatori. Izomeriyasi. Nomlanishi	1		
11.	Aromatik uglevodorodlarning olinishi, xossalari va ishlatilishi	1		
12.	Stirol, uning olinishi, xossalari va ishlatilishi	1		
13.	ChSB-2 (40 ball)	1		
14.	Uglevodorodlarning tabiiy manbalari. Tabiiy gaz	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Alkenlar. Nomenklaturasi. Izomeriyasi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: atrofimizda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni hamda kimyo fani ko'plab sohalar rivojlanishida jiddiy ahamiyatga ega ekanligi tushuntirish, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o'rganib, o'zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o'quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda qiziquvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish, mustaqillikka va ijodkorlikka o'rgatish, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning xotirasini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, masalalar yechishdagi qobiliyatni shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

kimyo fani va undagi asosiy qonuniyatlar haqida bilish, doimiy ravishda o'zini o'z rivojlantirib, kamolotga intilish, kimyo bo'yicha bilimlarni mustaqil ravishda oshirib borish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda o'z o'rnini bilgan holda tabiatdagi voqea, jarayonlarga daxldorlikni his etib, kimyoviy moddalardan iborat bo'lgan tabiat boyliklarini muhofaza qilish ishlarida faol ishtirok qilish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.


II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Alkenlar yoki olefinlar – alifatik to'yinmagan uglevodorodlar, uglerod atomlari o'rtasida joylashgan molekular bitta qo'shbog'ga ega organik moddalar. Lotincha olefiant– “moy” degan ma'noni anglatadi, tarixiy nom bo'lsa-da, kimyoviy adabiyotlarda keng qo'llanadi. Bu nomning sababi XVIII asrda olingan etilen xlorid – suyuq moysimon modda. Alkenlarning umumiy formulasi C_nH_{2n} bo'lib, ularning birinchi vakili – etilen. Etilenning bir valentli radikali ($CH_2=CH-$) vinil radikalideb ataladi.

Alkenda qo'shbog' mavjud bo'lgan uglerod atomlari sp^2 gibridlanish holatidadir. Bu degani bitta s- va ikkita p-orbital gibridlanishda ishtirok etadi, bitta p-orbital esa gibridlanmagan bo'lib qoladi. Gibrid orbitallarning bir-birining ustiga chiqishi σ -bog'ning hosil bo'lishiga olib keladi va gibridlanmagan p-orbitallar tufayli qo'shni uglerod atomlari o'rtasida ikkinchi π -bog' hosil bo'ladi. Shunday qilib, qo'shbog' bir σ - va bitta π -bog'lardan iborat.

Qo‘shbog‘ hosil qiluvchi atomlarning gibridd orbitalari bir tekislikda, π -bog‘ hosil qiluvchi orbitallar esa molekula tekisligiga perpendikulyar joylashgan. Qo‘shbog‘ (0,132 nm) bitta bog‘dan qisqaroq va uning energiyasi ko‘proq, chunki u mustahkamroqdir. Harakatchan, oson qutblanuvchi π -bog‘ning mavjudligi alkenlarning alkanlarga qaraganda kimyoviy jihatdan faolroq bo‘lishiga va birikish reaksiyalariga kirishiga imkon beradi.



Etilenning gomologlari alkenlardir, ular etilen qatori uglevodorodlari yoki olefinlar deb ham ataladi. Tarmoqlanmagan alkenlar eten (etilen) ning gomologik qatorini tashkil qiladi: C_2H_4 – eten, C_3H_6 – propen, C_4H_8 – buten, C_5H_{10} – penten, C_6H_{12} – geksen, C_7H_{14} – gepten va boshqalar. Alkenlarni ratsional nomenklaturaga muvofiq q nomlashda tegishli alkan nomidagi -an qo‘shimchasini -en yoki -ilen qo‘shimchasiga almashtiriladi. Ammo bunday nomenklatura bilan bir qatorda hozirgi vaqtda sistematik (xalqaro) nomenklatura ham keng ishlatiladi. Alkenlarni sistematik nomenklaturaga muvofiq q nomlashda avval asosiy zanjir tanlanadi. Qo‘shbog‘ asosiy zanjirda bo‘lishi kerak. Asosiy zanjirdagi uglerod atomlariga raqam qo‘yish qo‘shbog‘ tomondan yoki qo‘shbog‘ga yaqin tomondan bo‘lishi kerak. Asosiy zanjir raqamlangandan keyin alkanlarga o‘xshab yonaki zanjirdagi radikallar alfavit bo‘yicha aytiladi. Oxirida asosiy zanjir nomi va qo‘shbog‘ning o‘rni raqam bilan ko‘rsatiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Penten-2, 2-metilbuten-2, 2,2-dimetilgepten-3 formulasini yozing.
2. Alkenlarning umumiy formulasidan kelib chiqqan holda molekulyar massasi 84 g ga teng bo‘lgan modda tarkibidagi uglerod atomlarining sonini; molekulyar massasi 28 g ga teng bo‘lgan modda tarkibidagi vodorod atomlarining sonini toping.
3. Buten va geksen molekulasida tarkibidagi σ -va π - bog‘lar nisbatini toping.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Alkenlarning olinishi, xossalari va ishlatilishi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: atrofimizda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni hamda kimyo fani ko'plab sohalar rivojlanishida jiddiy ahamiyatga ega ekanligi tushuntirish, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o'rganib, o'zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o'quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda qiziquvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish, mustaqillikka va ijodkorlikka o'rgatish, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning xotirasini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, masalalar yechishdagi qobiliyatni shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

organik kimyo fanining rivojlanish tarixi va bu yo'nalishdagi Vatanimiz kimyo sohasining taraqqiyoti, o'zbek kimyogarlarning olib borayotgan ishlaridan xabardor bo'lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

o'rganilgan bilimlar asosida hisoblashlarni bilish va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Eten, propen va buten gazlardir. Molekulada 5 dan 18 gacha C atomlari bo'lgan alkenlar suyuqlikdir. Agar alken molekulasida 19 dan ortiq uglerod atomlari bo'lsa, ular qattiq moddalardir. Alkenlar rangsiz, suvda erimaydi, o'ziga xos o'tkir hidga ega.

Etilen ajratadigan sabzavotlar va mevalar Terib olingan olma, nok, qalampir, pomidor saqlash vaqtida etilen chiqaradi. Etilen ta'sirida atrofdagi boshqa sabzavotlarning pishishi tezlashadi, keyin esa ular aynan shu modda ta'sirida sifatini yo'qotadilar. Sabzavotlar kasalliklarga ko'proq ta'sirchan bo'ladilar; saqlash vaqtida kartoshka, sabzi va seldereyning unib chiqishi tezlashadi. Sabzavotlarning tuzilishi o'zgaradi. Harorat 0 °C bo'lganda sabzavotlar yaxshi saqlanadi. Pishish va o'sish tezlashishi deyarli kuzatilmaydi,

lekin harorat ortishi bilan keskin ortadi. Shuning uchun etilen chiqaradigan sabzavotlar va mevalar boshqa sabzavotlardan alohida saqlanishi kerak. O'simliklarning bu xususiyatini bilgan qishloq xo'jaligi xodimlari etilendan mevalarni pishirishda foydalanib kelmoqda. Bu meva va sabzavotlarni xomligida terib olib, etilen bilan ishlov berib uzoq masofalarga yetkazishga yordam beradi.




Etilen ta'sir ettirilgan




Etilensiz

Etilen laboratoriyada etil spirt va konsentrlangan sulfat kislotasi aralashmasini qizdirish bilan olinadi: Kimyoviy xossalari. Etilen va uning gomologlarining asosiy kimyoviy xossalari ularning qo'shbo'g'lari bilan bog'liq. Ular qo'shbo'g'ning uzilishi hisobiga oson reaksiyaga kirishadi. Ayniqsa, birikish reaksiyalari alkenlar uchun xarakterli hisoblanadi. Hidrogenlash reaksiyasi. Alkenlar yuqori haroratda katalizator ishtirokida qo'shbo'g'ning uzilishi hisobiga gidrogenlash reaksiyasiga kirishadi:



Alkenlarning kimyoviy xossalari qo'shbo'g'lari uzilish bilan bog'liq.

Polimerlanish bu – bir xil molekullarning o'zaro birikib, yirik molekullarni hosil qilish reaksiyasidir. Alkenlar sanoat miqyosida asosan neftni krekninglash natijasida hosil bo'ladi. Past alkenlarni toza holda fraksion haydash orqali olish mumkin.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Alkenlar va alkanlarning reaksiyaga kirishish qobiliyatini solishtiring.
2. Alkenlarning kimyoviy xossalari bilan alkanlarning xossalari o'rtasidagi asosiy farq nima?
3. Alkenlarga qanday reaksiya turlari xos?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

30 listdan iborat 10-sinf kimyo fanidan II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**